TIBBIY TERMINLARNI O‘QITISHDA YUZAGA KELADIGAN LINGVISTIK QIYINCHILIKLAR

Saydullayeva Muqaddam Akbarovna – katta o‘qituvchi
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Lotin tili tibbiy terminologiyasini o‘rganishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar bugungi kunda tibbiyot ta’limi va ilmiy izlanishlar jarayonida dolzarb masalalardan biridir. Chunki tibbiyot fanlarida qo‘llaniladigan terminlarning asosiy qismi lotin tiliga borib taqaladi. Shu bois ularni o‘rganishda fonetik, imlo, semantik va metodik muammolar uchraydi. Mazkur tadqiqotda lotincha tibbiy terminlarni o‘zlashtirishda uchraydigan asosiy qiyinchiliklar tahlil qilinib, mahalliy va xorijiy olimlarning fikrlari o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *lotin tili, tibbiy terminologiya, fonetik muammo, imlo qiyinchiliklari, metodik yondashuv, tibbiy ta’lim.*

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ В ИЗУЧЕНИИ МЕДИЦИНСКИХ ТЕРМИНОВ

Сайдуллаева Мукаддам Акбаровна – старший преподаватель
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *Трудности в изучении латинской медицинской терминологии являются одной из актуальных проблем медицинского образования и научных исследований. Поскольку основная часть терминов, используемых в медицинских науках, имеет латинское происхождение, при их изучении возникают фонетические, орфографические, семантические и методические проблемы. В данной работе анализируются основные трудности в освоении латинской медицинской терминологии, а также изучаются мнения отечественных и зарубежных учёных.*

Ключевые слова: *латинский язык, медицинская терминология, фонетическая проблема, орфографические трудности, методический подход, медицинское образование.*

LINGUISTIC DIFFICULTIES IN LEARNING MEDICAL TERMS

Saydullaeva Mukaddam Akbarovna – senior lecturer
Tashkent state medical university (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *Difficulties in learning Latin medical terminology are a pressing issue in medical education and research. Since the majority of terms used in medical sciences are of Latin origin, phonetic, spelling, semantic, and methodological problems arise when studying them. This paper analyzes the main difficulties in mastering Latin medical terminology and examines the opinions of Russian and international scholars.*

Keywords: *Latin language, medical terminology, phonetic problems, spelling difficulties, methodological approach, medical education.*

Kirish.

Tibbiyot fanining taraqqiyoti asrlar davomida til va terminologiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan. Qadimgi Rim va yunon davridan boshlab ilmiy tibbiyot shakllana boshlagan davrdayoq lotin tili tibbiy terminlarning asosiy manbai sifatida shakllandi. Masalan, *cor* (yurak), *pulmo* (o‘pka), *ventriculus* (oshqozon), *sanguis* (qon) kabi asosiy terminlar hozirgacha saqlanib qolgan. Hozirgi zamon tibbiyotining deyarli barcha bo‘limlarida — anatomiya, fiziologiya, patologiya, farmakologiya, jarrohlik va boshqa sohalarda lotin tilidan olingan atamalar keng qo‘llaniladi.

Lotin tiliga asoslangan tibbiy terminologiyani o‘rganish shifokorlar, hamshira va farmatsevtlar uchun zaruriy bilimdir. Chunki bu terminlar xalqaro miqyosda bir xil ma’noga ega bo‘lib, mutaxassislar o‘rtasida yagona ilmiy til vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, mazkur sohani o‘rganish jarayonida bir qator fonetik, imlo, semantik va uslubiy qiyinchiliklar yuzaga chiqadi.

Adabiyotlar tahlili va usullar.

Lotin tilining tibbiyotdagi ahamiyati haqida ko‘plab olimlar o‘z tadqiqotlarida fikr bildirganlar:

Reformatskiy A.A. “Введение в языкознание” (1967) kitobida muallif umumiy tilshunoslikning nazariy asoslarini bayon etar ekan, lotin tilining xalqaro ilmiy muloqotdagi o‘rniga alohida to‘xtaladi. Ayniqsa, terminologiyaning yagona asosini yaratishda lotin tilining ahamiyati haqida qimmatli fikrlar beradi. Ushbu manba maqolamizda lotin tilining ilmiy universalligi masalasini yoritishda asosiy manba vazifasini bajaradi. Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilida terminologiya masalalari” (1973) kitobi o‘zbek tilida terminlarni standartlashtirish muammolariga bag‘ishlangan. Muallif lotin tilidan kirgan atamalarni yozish va talaffuz qilishdagi izchillikning yo‘qligi ilmiy muloqotda noaniqlik tug‘diris-

hini qayd etadi. Bu manba maqolamizda “imlo muammolari”ni asoslashda muhimdir. Jo‘rayev M. “Lotin tili va tibbiy terminologiya”(2015). Ushbu kitobda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tibbiy terminologiya yoritiladi. Muallif anatomiya, farmakologiya va klinik amaliyotda uchraydigan lotincha terminlarning o‘zlashtirilishidagi qiyinchiliklarni tahlil qiladi. Ushbu maqolaning asosiy qismi tibbiy ta’limdagi muammolarni yoritishda tayanch manba sifatida xizmat qiladi. G.Paul tomonidan yozilgan “Prinzipien der Sprachgeschichte” (1920) nemis tilshunosligining klassik asari bo‘lib, unda terminlarning milliy tillarga moslashishi tabiiy jarayon sifatida izohlangan. J.Taylorning “Linguistic Categorization” (2003) asarida kognitiv tilshunoslik asosida terminlarning universal kategoriyalari o‘rganiladi. U lotincha terminlarni “ilmiy tafakkurning universal kodi” sifatida talqin qiladi. P.Langning “Medical Latin and Didactics” (2011) asarida lotin tilini tibbiy ta’limda o‘qitish usullari tahlil qilingan. Muallif fonetik mashqlar, klinik misollar va interaktiv usullarning samaradorligini ta’kidlaydi. P. Shermatovning “Tibbiy terminlarni o‘rgatishda usulik yondashuvlar” (2018), B.Karimovning “Lotincha terminlarning o‘zbek tilida qo‘llanishi” (2020) adabiyotlarida ham **lotin** tilidagi terminlarni o‘qitishda amaliy yondashuv zarurligi ta’kidlanadi. Xususan, klinik holatlar va retsept yozish amaliyotidan foydalanish samarali ekanini isbotlashgan. Lotincha terminlarning o‘zbek tiliga moslashishi, ularning yozilishdagi variantlari va amaliy qo‘llanishdagi kamchiliklar yoritiladi.

Muammolar tahlilini quyidagicha ko‘rib chiqish mumkin bo‘ladi:

1. Fonetik muammolar

Lotin tilidagi tovush tizimi o‘zbek tilidan sezilarli darajada farq qiladi. Masalan:

• *ae* (haemoglobin) ko‘pincha “ae” tarzida o‘qiladi, aslida esa “e” sifatida talaffuz qilinadi;

• *ph* (*pharmacologia*) ba’zida “пх” kabi talaffuz qilinadi, biroq u oddiy “f”dir. Tilshunos olim N. Mahmudov fikricha, fonetik xatoliklar nafaqat talaffuz, balki terminning to‘g‘ri anglanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

2. Imlo muammolari

Tibbiy terminlarni yozishda ham izchillik yetishmaydi. Masalan:

• *pharmacia* — “farmatsiya”mi yoki “farmasiya”?

• *diabetes mellitus* — “qandli diabet” shaklida to‘liq tarjima qilinadimi yoki “diabet” tarzida qisqartiriladimi? **Sh. Rahmatullayev** esa bunday tafovutlarni ilmiy tilda noaniqlik manbai deb hisoblaydi.

3. Semantik muammolar

Bir termin turli fanlarda turlicha ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Masalan:

• *crisis* — tibbiyotda “xastalikning keskinlashuvi”, iqtisodiyotda “inqiroz”.

• *infarctus* — patologiyada “to‘qima nobud bo‘lishi”, oddiy tilda esa ko‘pincha “yurak xuruji” sifatida talqin qilinadi. Mashhur olim V.A. Vinogradov bu hodisani “polisemantik konflikt” deb ataydi.

4. Terminlarning ko‘pligi

Tibbiyotda yuz minglab lotincha terminlar mavjud. M. Jo‘rayevning fikricha, birgina anatomiya bo‘limida 5 mingdan ortiq lotincha terminlar mavjud bo‘lib, talabalardan ularni qisqa vaqt ichida o‘zlashtirish talab qilinadi. Bu esa aqliy zo‘riqishni keltirib chiqaradi.

5. Muammolar

Lotin tilini o‘qitishda asosan grammatikaga asoslangan darsliklar qo‘llaniladi. Biroq P. Shermatovning ta’kidlashicha, tibbiy ta’limda terminlarni klinik holatlar, kasallik tarixlari va retsept yozish amaliyoti orqali o‘rgatish samaraliroqdir. Lotin tiliga asoslangan tibbiy terminologiyani o‘rganish bo‘yicha ilmiy manbalar turli yondashuvlarni taqdim etadi.

Reformatskiy (1967), Vinogradov (1982), Paul (1920) va Taylor (2003)larning nazariy manbalarida lotin tilining umumiy tilshunoslikdagi o‘rni, terminlarning xalqaro miqyosda universalligi hamda polisemantik xususiyatlari keng yoritilgan. Ularning nazariy qarashlari lotin tilining ilmiy tafakkurdagi universalligini ko‘rsatadi. Mahalliy tadqiqotlar esa Rahmatullayev (1973), Jo‘rayev (2015), Mahmudov (2008) va Karimov (2020) asarlarida lotin terminlarining o‘zbek tilidagi moslashuvi, yozilishdagi nomuvofiqliklar, talaffuzdagi qiyinchiliklar va usulik kamchiliklar alohida ta’kidlangan. Bu manbalar milliy terminologiyaning rivoji va standartlashtirilishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Uslubiy manbalar esa Lang (2011) va Shermatov (2018) tadqiqotlarida tibbiy terminlarni o‘qitish usullari asosida yoritilgan. Ayniqsa, klinik misollar, fonetik mashqlar, retsept yozish amaliyoti va elektron ta’lim vositalaridan foydalanish samaradorligi ta’kidlanadi. Bu manbalar usulik takliflarni ishlab chiqishda muhimdir.

Umuman olganda, xorijiy olimlar ko‘proq lotin tilining xalqaro va nazariy jihatlariga urg‘u beradilar, mahalliy olimlar esa milliy tilga moslashuvi va o‘qitishdagi qiyinchiliklarni tadqiq etadilar. Usulistlar esa lotin tilini tibbiy ta’lim jarayonida qanday samarali o‘rgatish mumkinligi ustida fikr yuritadilar.

Xulosa.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, lotin tili asosidagi tibbiy terminologiyani o‘rganish masalasi murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, u nazariy, usulik hamda amaliy tadqiqotlarni talab qiladi. Manbalardagi turli yondashuvlarni umumlashtirish orqali quyidagi xulosaga kelish mumkin:

• nazariy manbalar lotin tilining universalligini asoslab beradi;

• mahalliy tadqiqotlar milliy sharoitdagi muammolarni ko‘rsatadi;

• usulik asarlar esa ularni hal etishning amaliy yo‘llarini taklif qiladi.

Lotin tiliga asoslangan tibbiy terminologiya zamonaviy tibbiyotning ajralmas qismidir.

Olimlarning qarashlari va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mazkur muammolarni bartaraf etish uchun:

- tibbiy terminlarni yozish va talaffuz qilish bo‘yicha yagona standart ishlab chiqish;
- maxsus ikki tilli (lotincha-o‘zbekcha va lotincha-ruscha) izohli lug‘atlar yaratish;
- o‘qitishda interaktiv usullar (klinik misollar, amaliy mashqlar, elektron platformalar)dan foydalanish;
- terminlarni sohaga moslashtirilgan darslik va qo‘llanmalar asosida o‘rgatish;
- xalqaro tajribani o‘zlashtirib, mahalliy sharoitga moslashtirish katta ahamiyat kasb etadi.

Demak, lotin tili asosidagi tibbiy terminologiyani samarali o‘rganish nafaqat tilshunoslik va tibbiyot o‘rtasidagi ilmiy bog‘liqlikni mustahkamlaydi, balki xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Reformatskiy A. A. *Введение в языкознание*. — Москва: Aspekt Press, 1967.

2. Paul G. *Prinzipien der Sprachgeschichte*. — Halle: Niemeyer, 1920.

3. Jo‘rayev M. *Lotin tili va tibbiy terminologiya*. — Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2015.

4. Shermatov P. *Tibbiy terminlarni o‘rgatishda uslubiy yondashuvlar*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

5. Karimov B. *Lotincha terminlarning o‘zbek tilida qo‘llanishi*. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.

6. Nishonova, D. J. (2022). *The problems of teaching Latin in medical institutes*. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(5), 42–46.

7. Saliyeva, Z., & Akhmedova, Sh. (2024). *Translation issues of medical terminology: The case of Uzbek-English languages*. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning, 5(1), 112–118.

8. Jabborova, S. A. (2023). *Morphological and syntactic analysis of the structure of medical terminology in the English and Uzbek languages*. Ilm-Fan Ziyosi, 2(4), 55–61.

9. Akbarkhodzhaeva, F. A. (2024). *Issues of studying medical terminology in Uzbek linguistics*. EPRA International Journal of Research and Development, 9(3), 101–106.

10. Ikramovna, D. I. (2022). *Characteristics of medical terminology in English and its appearance in Uzbek language*. International Journal of Development and Public Policy, 1(8), 87–93.